

QORAQALPOG'ISTON BOSMASIDA SPORT MAVZUSINING YORITILISHI

Jienbaeva Gozzal

Jurnalistika 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Qoraqalpog'iston matbuotida sport mavzusining qanday yoritilishi va uning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy ta'sirlarini o'rghanishga qaratilgan. Maqola doirasida, Qoraqalpog'istonning yirik gazeta va jurnallarida sport turlari, sport musobaqalari, sportchilarning yutuqlari va umumiy sport madaniyati qanday yoritilishi, shuningdek, sportning jamoatchilikdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Sport yangiliklarining sifatli yoritilishi, matbuot orqali sportga bo'lgan qiziqishning oshishi, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli alohida e'tiborga olinadi.*

Kalt so'zlar: *Qoraqalpog'iston, bosma matbuot, sport, sport jurnalistikasi, sport yangiliklari, sport turlari, ijtimoiy ta'sir, sport madaniyati, yoshlar tarbiyasi, ommaviy axborot vositalari.*

Qoraqalpog'iston bosmasida sport mavzusining o'rni.

Qoraqalpog'iston matbuotida sport mavzusi ko'plab maqolalarda muhokama qilinadi. Ushbu maqolalar ko'pincha xalqaro va milliy sport yangiliklarini, musobaqalar va sportchilarni qamrab oladi. Biroq, muhim jihat shundaki, Qoraqalpog'iston matbuotida sport mavzusi faqat yangiliklar va musobaqalar bilan cheklanmaydi, balki sportning jamiyatdagi ijtimoiy roli va sportchilarning shaxsiy hayoti ham muhim o'rinn tutadi. Masalan, Qoraqalpog'istonning mahalliy sportchilari va ularning yutuqlari, xalqaro musobaqalarda ishtirok etishlari haqida keng maqolalar yoziladi. "Qaraqalpaqstan sporti" gazetasining 29-oktabr kungi sonida "Bozatawlı jas sportshılar", "No'kis rayonı jasları – jen'impaz", "Taxtako'pirliler tabısı" atamasida

maqolalar elon qilingan. Bu kabi maqolalarda Qoraqalpog'istonning chekka hududlarida ham yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqining yuksalganligin namayon etkanligin ko'ramiz. Garchi bu hududda sport infratuzilmasi katta shaharlarga nisbatan ancha kam bo'lsa-da, chekka qishloqlarda va tumanlarda yashovchi yoshlар sportni rivojlantirishda, ayniqsa, milliy va xalqaro maydonlarda yutuqlar qo'lga kiritishda o'z o'rnini topmoqda. Bu hududlarda sportga bo'lgan qiziqish, avvalo, yoshlarning yaxshi sog'liqni saqlash, kuchli ruhiy va jismoniy holatda bo'lishlariga, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi faolliklariga ta'sir ko'rsatadi. Chekka hududlardagi sportchilar, odatda, o'z kuchlarini sinovdan o'tkazishga intilib, har xil qiyinchiliklarni yengib, yuqori natijalarga erishishga harakat qilishadi

Sport va madaniyat o'rtaqidagi bog'liqlik. Qoraqalpog'istonning sport madaniyati juda boy. Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos milliy sport turlari bor bo'lib, ular matbuotda doimo yoritiladi. Bu sport turlari nafaqat musobaqalar shaklida, balki yoshlarni tarbiyalash va ularning ruhiy va jismoniy holatini yaxshilashda ham katta rol o'ynaydi. Qoraqalpoq milliy sportlari, masalan, "kurash", "arqon tortish" va "ko'pkari" kabi sport turlari ham milliy g'ururni oshirishga xizmat qiladi. Qoraqalpoq bosmasi bu turlarni targ'ib qilishda, madaniyat bilan sportni bog'lashda katta ahamiyatga ega. Qoraqalpog'istonning madaniy an'analarini va urf-odatlari sportga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Misol uchun, matbuotda milliy kurash musobaqalari va xalqaro o'yinlarga yo'naltirilgan maqolalar, milliy sport an'analarini yosh avlodga yetkazishda yordam beradi. A'dilbay Orazov muallifligida "Ilaq ko'kparinan championat", S. Kulekeshov "Erkin gu'res" haqida yozib madaniyat bilan sportning bog'liqligini ko'rsatgan. S.Kulekeshovning maqolasida kurash an'anaviy sport turi ekanligi, bu sportning rivojlanishi yoshlар orasida katta ahamiyatga egaligini atab o'tgan. Qoraqalpoq kurashi, asosan, jismoniy kuch va mahoratni talab qiladigan sport turi bo'lib, chekka hududlardagi yoshlар kurashda yuqori yutuqlarga erishmoqdalar. Bu hududlardan chiqqan yosh kurashchilar ko'plab viloyat va respublika musobaqalarida g'olib bo'lishgan.

Ulardan ba'zilari xalqaro musobaqalarga ham yo'l olishgan va shu orqali Qoraqalpog'istonning sport salohiyatini dunyoga tanitishgan.

Yoshlar va sport. Qoraqalpog'istonning yosh avlodini sportga jalg etish, sog'lom turmush tarzini yoyish matbuotda alohida o'rinni tutadi. Yoshlar sporti faqatgina jismoniy faoliyatni rivojlantirish emas, balki ular o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish, turli ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni uzatishda ham muhim ahamiyatga ega. Sport, shuningdek, yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga va sog'lom turmush tarziga rag'batlantiradi. Qoraqalpoq bosmasi yoshlarni sportga jalg qilishda ko'plab intervyyu, maqola va tahliliy materiallarni chop etadi. Masalan, sportchilar bilan

suhbatlar, yosh sportchilarni qamrab olgan faoliyatlar haqida maqolalar ko'pincha chiqadi. Bu kabi maqolalar Qoraqalpog'iston hududida chiqadigan "Qaraqalpaqstan jaslari" gazetasida ko'plab uchratamiz. Jumagu'l Embergenovaning "Parij olimpiadasi" maqolasida Dzyudoshi Diyora Keldiyorovaning Parij- 2024 XXXIII yozgi olimpiada championi ekanligi haqida bayon etilgan. "Qola medal iyesi" maqolasida esa Qirg'iston Respublikasining Cholpon-Oto shahrida bo'lib o'tgan Jahon kuboginda 80 kg vaznda Y.Elmuratova 3-o'rinni egallagani alohida etiborga loyiq.

Sportni tahliliy yondoshuvlar orqali yoritish. Qoraqalpoq bosmasidagi sport mavzusiga yondoshuv, shuningdek, tahliliy maqolalar orqali sportning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Sportning ijtimoiy rolini tahlil qilishda matbuot, sportning nafaqat jismoniy rivojlanish, balki milliy birlashish va yoshlarga ma'nnaviy tarbiya berishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Sportni tahliliy yondoshuvlar orqali yoritish jamiyat, iqtisodiyot va madaniyatdagi uning muhim rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Sportning jismoniy rivojlanishdan tashqari, uning ijtimoiy va madaniy ahamiyati ham katta. Sportning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalardagi ta'sirini tahlil qilish, jamiyatdagi o'zgarishlarni yanada chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi. Shuningdek, gender tengligi,

psixologik barqarorlik va milliy identifikatsiya kabi masalalar sportni tahlil qilishda muhim omillar hisoblanadi. Bu yondoshuvlar sportni nafaqat jismonyi faoliyat sifatida, balki uning jamiyatdagi umumbashariy ahamiyatini ham ta'minlaydi.

Umuman olganda, Qoraqalpog'iston bosmasida sportni yoritish nafaqat sport sohasidagi yangiliklarni yetkazish, balki jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Sportning yoshlar tarbiyasidagi, milliy madaniyatni saqlashdagi va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashdagi o'rni haqida taqdim etilgan materiallar, jamiyatda sportni rivojlantirish va unda ijtimoiy faoliyat sifatida ishtirok etishga rag'batlanadir. Shu sababli, bosma ommaviy axborot vositasi sifatida sportni keng yoritish, uni xalqaro va mahalliy miqyosda yanada rivojlantirishga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

1. Qosimova N va boshqalar. Jurnalistika- Iqtisoslashgan jurnalistika. Darslik IX-jild T., "O'zbekston" 2019
2. "Qaraqalpaqstan sporti" gazetasi 2024-yil 11-dekabr soni
3. "Qaraqalpaqstan jaslari" gazetasi